




# BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## BUXORO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2022- YIL YANVAR-SENTABR (DASTLABKI MA'LUMOT)




**Tel.: 65-220-83-06**

*[www.buxstat.uz](http://www.buxstat.uz)*


2022- yil yanvar-sentabr oylarida



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 18 449,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-sentabr oyilariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,6 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 16 801,9 mlrd. so'm jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 91,1 % ni tashkil etdi.




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili shlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 3,1 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 122,3 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 0,4 % ga oshganidir. Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash utilizatsiya qilishda – 39,8 % ga pasayish kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 767,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,2 % ini tashkil etdi.




2022- yil yanvar-sentabr oylarida  
Oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan % da



**Oltinugurt**




**Shagʻal**



| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-sentabr | 2022- yil yanvar-sentabr | Farqi +/- |
|---------------------|--------------------------|--------------------------|-----------|
| Oltinugurt, t.      | 938,0                    | 1 315,0                  | 377,0     |
| Shagʻal, t.         | 14 000,0                 | 17 000,0                 | 3 000,0   |




**Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻulash xizmatlari**



| Sanoat mahsulotlari   | 2021- yil yanvar-sentabr | 2022- yil yanvar-sentabr | Farqi +/- |
|---|--------------------------|--------------------------|-----------|
| Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻulash xizmatlari, mln. soʻm | 125 074,9                | 124 345,6                | - 729,3   |


2022- yil yanvar-sentabr oylarida



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16 801,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 91,1 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,2 % (1,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 56,2 % (52,8 %) va quyi texnologiyalisi – 41,5 % (45,2 %) ni tashkil etdi.



Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 44,0 % (2021- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 110,8 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 21,2 % (2021- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 100,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,4 % (2021- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 101,0 %) ni tashkil etdi.


**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati**

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*




Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 4,9 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 88,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,3 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,0 %) ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 715,8 ming tonna avtomobil benzini (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 11,8 % ga ko'paygan), 219,9 ming litr uzum vinosi (26,0 % ga kamaygan), 4 284,9 ming litr aroq mahsulotlari (160,4 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.



### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa 114,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,4 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 95,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 65,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 139,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 88,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 896,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati


2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 101,0 % ga va ishlab chiqarish hajmi 2 850,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.





### Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 109,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 64,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 6,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 116,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 100,3 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 919,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallar, qoq'oz va qoq'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra mahsulotlarni ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 134,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %, fizik hajm indeksi 92,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 181,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 57,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni, fizik hajm indeksi 111,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 418,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 39,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 65,3 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 44,0 % ni, fizik hajm indeksi 110,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 8 112,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 228,0 %.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 46,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**Elektr, gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 746,8 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,0 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 222,3 % ni tashkil etdi.




**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**




### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 133,6 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlarining hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 5,5 % va axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 35,5 % ga oshganligi kuzatildi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7 089,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabr oylari mos davriga nisbatan 111,4 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 38,4 % ni tashkil etdi.

#### Oziq-ovqat mahsulotlari




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatida 2 450,7 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 8,1 % ga oshdi.

2021- yilning shu davriga nisbatan viloyat bo'yicha o'rtacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Romitan tumani (139,7 %), Kogon tumani (118,3 %), Buxoro shahri (112,5 %) va Jondor tumani (106,9 %) korxonalari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

#### Nooziq-ovqat mahsulotlar


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 34,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 65,4 % ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 36,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 63,5 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2021- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 108,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 113,2 % ni tashkil etdi.



### Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, (23,9 %) ni shuningdek, Buxoro shahri (18,5 %) ni, G'ijduvon tumani (10,8 %) ni, Jondor tumani (7,9 %) ni tashkil etdi.



#### Buxoro viloyati

4 450,2 mlrd. so'm



2020- yil yanvar-sentabr

5 910,9 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-sentabr


7 089,7 mlrd. so'm



2022- yil yanvar-sentabr




**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, (35,9 %) ni shuningdek, Buxoro shahri (16,9 %) ni, G'ijduvon tumani (11,7 %) ni, Kogon tumani (5,9 %) ni tashkil etdi.






 o'sish sur'ati  
 mlrd. so'm



### Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, (21,6 %) ni, Jondor tumani (15,2 %) ni, Kogon tumaniga esa (9,3 %) ni tashkil etdi.





o'sish sur'ati  
mlrd. so'm



### Buxoro viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari




Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani to'g'ri kelib, (47,1 %) ni, shuningdek, Buxoro shahriga (11,5 %) ni, G'ijduvon tumani esa (6,2 %) ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati  
mlrd. so'm


### Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (451 449,2 ming so'm), Kogon tumani (12 353,4 ming so'm) hamda Kogon shahrida (10 331,8 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (9 277,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.






### Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3 565,3 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 88 173,0 ming so'mni, Kogon tumanida – 6 115,8 ming so'mni, Buxoro shahrida – 4 589,1 ming so'mni tashkil etdi.



### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 836,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,1 % ni tashkil etdi.




**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

Bugungi kunda viloyatda 4 994 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 267 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining (25,4 % i) Buxoro shahriga, 608 tasi (12,2 % i) G'ijduvon tumaniga, 402 tasi (8,0 % i) Kogon tumaniga, 375 tasi (7,5 % i) Buxoro tumaniga, 367 tasi (7,3 % i) Jondor tumaniga, 362 tasi (7,2 % i) Romitan tumaniga, 289 tasi (5,8 % i) Shofirkon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

**Jami yangi tashkil etilgan**



**Jami faoliyat yuritayotgan**



yangi tashkil etilgan  
 faoliyat yuritayotgan

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 145 ta loyiha bo'yicha 2 074,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 19,7 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2021- yil yanvar - sentabr oylarida 1 262 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 2,8 m. ni tashkil etdi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari**

|  | 2021-yil<br>yanvar-sentabr | 2022-yil<br>yanvar-sentabr |
|--|----------------------------|----------------------------|
| <b>Loyihalar soni, birlik</b>  | 113                        | 145                        |
| <b>Korxonalar soni, birlik</b>   | 98                         | 134                        |
| <b>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm</b>                                      | 1 253,0                    | 2 074,7                    |
| <b>Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollar</b> | 12,7                       | 19,7                       |
| <b>Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik</b>                                  | 451                        | 1 262                      |